multimodal tamoyilni maksimal darajada amalga oshirish imkonini beruvchi logistika xizmatlari bozorini rivojlantirish, 3PL va undan yuqori formatda xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan yirik milliy transport operatorlari tashkil etilishini rag'batlantirish;

mamlakat tranzit salohiyatini to'laqonli ro'yobga chiqarish, shu jumladan, moslashuvchan tarif siyosatini qo'llash va bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish yo'li bilan qo'shimcha tranzit yuk oqimlarini jalb etish;

tashqi va ichki moliyalashtirish manbalarini jalb etish ko'lamini kengaytirish hamda innovatsion texnologiyalarni qo'llash asosida transport infratuzilmasini kompleks va ildam rivojlantirish, hududlarda yuklar shakllanishining asosiy nuqtalarini hisobga olgan holda transport-logistika markazlarining zamonaviy tarmog'ini shakllantirish;

xalqaro axborot tizimlari bilan integratsiya qilgan holda mamlakatning logistika tizimi platformalarini shakllantirish, xalqaro yuk tashishlarda raqamli va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, logistika sohasida kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish.

Ushbu belgilangan vazifalar qishloq xo'jaligida transport tizimidan foydalanishning samaradorligini oshirish mavzusi dolzarbligini ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qishloq xo'jaligida transport tizimidan samarali foydalanishning nazariy asoslari bir qator mahalliy va xorijiy olimlar ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Rus tadqiqotchisi V.A. Verzilin fikricha, qishloq xo'jaligida transportdan samarali foydalanishni tashkil etishning asosiy tamoyili tashish jarayonlarini qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish texnologiyalari va ularni bajarish jarayonlari bilan oqilona uyg'unlashtirishdan iborat. Khandker, Bakht va Koolwal, Donaldson kabi olimlar asarlarida odatda transport aloqalarining yaxshilanishi ishlab chiqarish resurslari narxlarini pasaytirishi va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini oshirishi mumkinligi ta'kidlanadi. Bravo-Ortega va Lederman o'z tadqiqotlarida qishloq xo'jaligi rivojlanishi va transport infratuzilmasi o'rtasidagi aloqalarni tahlil qilar ekan empirik muammolardan biri transport infratuzilmasining joylashuvi bilan bog'liq endogenlikdir, chunki bu omil ko'pincha ko'plab siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillar tomonidan belgilanadi va tushirib qoldirilgan o'zgaruvchilar tufayli yuzaga keladigan chetlanish (omitted variable bias) ta'sirini nazorat qilish muhimdir deydi. Mamlakatimiz olimlaridan A.K. Igamberdiev o'zining o'quv qo'llanmasida qishloq xo'jaligida foydalaniladigan transportning xususiyatlarini kengroq ochib bergan bo'lib, Transport agregati etarli darajada manyovrchan, boshqarishga qulay bo'lishi, transport jarayonlarini yuqori sifatda bajarilishini, mahsulot sifatini, maksimal tortish kuchi va kam yonilg'i sarfini ta'minlashi kerak deb ta'kidlaydi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Transport tizimini rivojlantirish muammolarini tahlil etish bilan shug'ullangan milliy va xorijlik olimlarning ilmiy izlanishlari natijalari mazkur tadqiqotning nazariy-uslubiy bazasi sifatida xizmat qildi. Maqolani tayyorlashda abstrakt va analitik mushohada, qiyosiy va omilli tahlil, indikativ, tanlanma kuzatuv, taqqoslash, iqtisodiy-statistik va boshqa usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Turli tadqiqotlar transport infratuzilmasi inson hayoti sifatini yaxshilash uchun muhim va qishloq xo'jaligi rivojlanishini kuchaytiruvchi katalizator ekanligini tasdiqlagan. Garchi transport infratuzilmasi loyihalari katta kapital qo'yilmalarni, yuqori qo'shimcha kapital ishlab chiqarishni, yuqori tavakkalchilikni va investitsiyalar bo'yicha past rentabellikni o'z ichiga olsada, u qishloq xo'jaligi bilan kuchli aloqaga ega ekanligi ta'kidlanadi. Shuni ta'kidlash kerakki transport tizimi va transport infratuzilmasi tushunchasini farqini ajratish muhim.

Transport (lotincha transporto – “ko'chirish”) moddiy ishlab chiqarishning muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning samaradorligini oshirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Transport tizimi deganda – yuklarni tashish jarayonida bir-biriga bog'liq bo'lgan barcha turdagi transportlar majmui tushuniladi.

Transport tizimi tushunchasiga J.S. Fayzullayev kengroq ta'rif berib, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar bir biriga samarali ta'sir ko'rsatadigan va har xil yuk ortish tushirish, qurilish ishlarining bajarilishini, hamda, transport xizmatlariga bo'lgan talabni qondirish maqsadida yuk va yulovchilar xarakatini ta'minlaydigan transport turlari hamda vositalari sifatida izohlagan. Shuningdek, qatnov yo'llari, texnik inshootlar, yuk stansiyalari, yo'lovchi vogzallari, chipta sotish markazlari, tashishni tashkil etish kompaniyalari, logistika markazlari, omborxonalar, muhandislik tarmoqlari, kommunikatsiyalarni ham transport tizimining tarkibiy qismiga kiritadi.

David H. Clarke transport infratuzilmasi – bu jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan transport tizimining fizik, texnik va tashkilotchilik komponentlarining yig'indisidir deb ta'kidlaydi. Bu infrastruktura o'z ichiga yo'llar, ko'priklar, aeroportlar, temiryo'l stansiyalari, transport vositalari, va transportni boshqarish tizimlarini oladi.

Richard G. Cervero esa, “transport infratuzilmasi – bu turli xil transport modellarini birlashtirgan va samarali aloqani ta'minlaydigan inshootlar va xizmatlar majmuasidir” deb ta'rif bergan.

Bu fikrlarni umumlashtirib transport infratuzilmasi – bu transport tizimining asosiy tarkibiy qismlarini tashkil etadigan, transport vositalari harakatini ta'minlash va yaxshilashga yordam beradigan obyektlar va xizmatlar to'plamidir deyishimiz mumkin.

Qishloq xo'jaligida ishchi davri ishlab chiqarish davri bilan mos kelmagani sababli transportdan foydalanish mavsumiy xarakterga ega. Uning ishlatilish intensivligi yil davomida sezilarli darajada o'zgarib turadi. Transport vositalari, boshqa qishloq xo'jalik texnikasi va asboblari singari, ishlab chiqarish jarayonida nisbatan qisqa muddat davomida band bo'ladi, chunki aksariyat qishloq xo'jalik ishlarini bajarish muddati cheklangan bo'lib, odatda boshqa vaqtlarga ko'chirilishi mumkin emas.

Transport ishlab chiqarish jarayonining o'ziga xos jihati shundaki, u bir tomondan ishlab chiqarishning bir qismi bo'lsa, ikkinchi tomondan, mahsulotni ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga yetkazish orqali muomala sohasida amalga oshiriladi. Transport ishlab chiqarish bilan iste'molni bog'lab, ishlab chiqarish jarayonini muomala sohasida davom ettirib, butun ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlarini yagona tizimga birlashtiradi. Bu esa ma'lum turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish imkonini beradi.

Rus olimi V.A. Verzilin fikricha, qishloq xo'jaligida transportdan samarali foydalanishni tashkil etishning asosiy tamoyili tashish jarayonlarini qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish texnologiyalari va ularni bajarish jarayonlari bilan oqilona uyg'unlashtirishdan iborat.

Zamonaviy qishloq xo'jaligi korxonalarida transport ishlarining ishlab chiqarish jarayonining normal kechishini ta'minlashdagi roli doimiy ravishda ortib bormoqda.

Quyidagi jadvalda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirishning ikki yo'nalishi ko'rsatilgan:

Yo'nalish	Ta'rif
1. Mehnat jarayonlarini maxsus mashinalar yordamida bajarish	Mehnat jarayonlarini turli operatsiyalarga ajratish va har birini maxsus mashinalar yordamida bajarish.
2. Bir vaqtning o'zida bir nechta operatsiyani bajarish	Maxsus kombinatsiyalangan texnikalar yordamida bir nechta operatsiyani bir vaqtda bajarish va transport jarayonlarini ishlab chiqarish bilan uyg'unlashtirish.



Hozirda transport operatsiyalari ishlab chiqarish jarayonining tashqi emas, balki ichki tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Qator qishloq xo'jalik ishlarini (masalan, tuproqni o'g'itlash bilan birga haydash, ekish, hosilni yig'ish va o'g'it sepish) bajarish jarayonida asosiy texnologik jarayon transport operatsiyalari bilan uyg'unlashgan holda amalga oshiriladi.

Transportdan foydalanish samaradorligi bir tomondan transport jarayonini amalga oshirish uchun sarflangan mablag'lar, ikkinchi tomondan esa amalga oshirilgan tashish hajmi bilan belgilanadi.

Qishloq xo'jaligida transportdan foydalanish samaradorligini to'liq baholash uchun yuk harakati jarayonini bosqichma-bosqich kompleks tahlil qilish zarur. Bu jarayon quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: mahsulotni qadoqlash, tashishga tayyorlash, yuklash, to'g'ridan-to'g'ri tashish, qabul qilish, tushirish va omborlash.

Qishloq xo'jaligida transportdan foydalanish samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar tizimida tashishni tashkil etish darajasi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki u nafaqat iqtisodiy samaradorlikka, balki qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini transport bilan ta'minlash sifatiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida transport vositalarining samaradorligi bir qator omillarga bog'liq: Harakatdagi transport vositalarining texnik tayyorgarlik darajasi, transport bo'limlarining moddiy-texnik ta'minoti darajasi, ishlab chiqarish bazasining yetarliligi....

Transportdan foydalanish samaradorligini oshirishda yuklash va tushirish ishlarini tashkil etishni takomillashtirish alohida ahamiyatga ega. Yangi yuklash-tushirish texnikasi, konteyner va idishlarning qo'llanilishi ushbu jarayonlarni optimallashtirishga yordam beradi. Yuklash va tushirish ishlarining samarali tashkil etilishi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tarmoqlari va korxonalarining transport xizmatlari sifatini belgilaydi hamda mahsulot yo'qotishlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Qishloq xo'jaligida transportning samarali ishlashi yo'l tarmog'iga, uning zichligi va qishloq yo'llarining sifatli holatiga bog'liq bo'lgan muhim omildir. Yo'l tarmog'ining rivojlanishi xarajatlar darajasiga ta'sir ko'rsatib, transport vositalarining unumdorligini belgilaydi.

Qishloq xo'jaligida transportdan foydalanishning xarakterli xususiyati shundaki, yuk tashishlarning 2/3 qismi tuproq yo'llari orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun qattiq qoplamali ichki xo'jalik yo'llari tarmog'ini rivojlantirish muhim muammo bo'lib qolmoqda. Bunday yo'llarni qurish samaradorligini baholash mezonlaridan biri tashish xarajatlarining kamayishidir. Bu esa asosan yo'lda yil davomida harakat intensivligiga, yuk tashish paytida mahsulot yo'qotishlarining kamayishiga, transport ishlarining o'z vaqtida bajarilishiga, ishlab chiqarish obyektlari va hosilni yig'ishtirish texnikasining transport bilan ta'minlanish darajasining oshishiga bog'liq.

Qishloq xo'jalik texnikalariga (kombaynlar, ekish agregatlari va boshqalar) xizmat ko'rsatishda transport vositalari ko'pincha dalada va tuproq yo'llarida katta masofalar bosib o'tadi. Yo'l sharoitlari yoqilg'i va moylash materiallari sarf-xarajatlariga, transport vositalarining ta'miri va texnik xizmat ko'rsatish xarajatlariga, shinalarni ta'mirlash va tiklashga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Ushbu xarajatlar esa o'zgaruvchan xarajatlarga kiradi.

Qishloq xo'jaligida transportdan foydalanishning tashkil etilishi mehnat resurslarining oqilona ishlatilishiga (xodimlarning malakasi, transport korxonalari va xo'jaliklarda mehnatni tashkil etish darajasi, mehnatni moddiy rag'batlantirish tizimi) katta darajada bog'liq ekanligi tadqiqotlar natijasida isbotlangan.

Bu omillar ayniqsa qishloq xo'jaligida muhim ahamiyatga ega. Transport jarayonini umumiy tashkil etishga va transport ishlarida mehnatni tashkil etishga ish joylarining o'ziga xos xususiyatlari, ularning sharoitlari hamda boshqa bo'limlar ish joylari bilan o'zaro bog'liqligi (yuk ortish-tushirish ishlari, harakat jarayoni, xizmat ko'rsatish va boshqalar) katta ta'sir ko'rsatadi.

Bundan tashqari, transport ekspluatatsiyasining muhim omillari qatoriga.

Bundan tashqari, qishloq xo'jaligida transport ekspluatatsiyasining muhim omillari quyidagilardan iborat:

- tashilayotgan yuklarning fizik-mexanik va agrobiologik xususiyatlari,
- tashish masofasi,
- yo'l sharoitlari,
- yuk tashish hajmi va ularning mavsumiy o'zgarishlari,
- yuk ortish-tushirish ishlarining mexanizatsiya darajasi,
- transport bo'linmalari va korxonalarini tashkil etish shakllari hamda haydovchilarning malakasi.

Birinchi to'rtta omil korxonalarning ixtisoslashuvi va hajmi, ishlab chiqarish ob'ektlari, omborlar va saqlash joylarining joylashuvi, tuproq-iqlim sharoitlari, qishloq xo'jalik ishlarini bajarishning agrotexnik muddatlari kabi omillar bilan belgilanadi. Shu sababli, ular transport tashkil etilishidan uncha ko'p darajada bog'liq emas. Oxirgi uchta omil esa transportning tashkil etilishi va undan foydalanish samaradorligining oshishi bilan yaxshilanib boradi.

Qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, juda ko'p yuklar kichik hajmiy og'irlikka ega bo'ladi. Yengil yuklarni tashish paytida umumiy foydalanishdagi yuk mashinalarining yuk ko'tarish qobiliyati to'liq ishlatilmaydi. Natijada ularning unumdorligi pasayadi va tashish xarajatlari oshadi.

Yengil qishloq xo'jalik yuklarining transportga yaroqliligini oshirish ularni presslash yoki briketlash orqali amalga oshirilishi mumkin. Masalan, pichanni presslash uning hajmiy og'irligini 2,5–3 baravar oshiradi va



transport vositalarining yuklanishini sezilarli darajada yaxshilaydi. Bundan tashqari, presslangan pichanning tashish jarayonida shamol ta'siridan yo'qolishi presslanmagan pichanga nisbatan uch baravar kam bo'ladi.

Qishloq xo'jaligida katta ulushni maxsus transport vositalarida tashishni talab qiluvchi yuklar egallaydi. Bunday yuklar o'z xususiyatlariga ko'ra juda xilma-xil bo'lib, ularning 28 foizi don, ozuqa va boshqa quyma yoki uyum holatidagi materiallardan iborat. Bundan tashqari, bu turga tez buziluvchi mahsulotlar hamda zudlik bilan yetkazib berilishi lozim bo'lgan yuklar ham kiradi.

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, transportdan foydalanish samaradorligi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish kompleksi korxonalari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar rivojlanish darajasiga ham bog'liq. Transport bo'linmalarining eng yaqin iqtisodiy aloqalari ular xizmat ko'rsatayotgan korxonalar bilan shakllanadi.

Transport korxonalari va ularning xizmat ko'rsatayotgan tashkilotlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tizimini baholashda shuni ta'kidlash lozimki, bu tizim ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi tarmoqlar hamda transportning moddiy-texnik ta'minoti bilan bog'liq tarmoqlar bilan bo'lgan iqtisodiy munosabatlarga nisbatan ancha moslashuvchan hisoblanadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, qishloq xo'jaligiga transport xizmatlari ko'rsatishning samaradorligi va sifati yuk tashish ishlarining iqtisodiy samaradorligini belgilovchi omillar bilan bog'liq. Shu bilan birga, transport xizmatlari samaradorligini baholash nuqtai nazaridan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'ziga xos talablarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Bunday talablarning eng muhimlaridan biri transport ishlarining o'z vaqtida, to'liq hajmda va belgilangan nomenklaturaga muvofiq bajarilishidir. Bu talab yuklarning muntazam yetkazib berilishini, sanoat va boshqa yuklarning qishloq xo'jaligi korxonalariga o'z vaqtida olib kelinishini, qishloq xo'jalik mahsulotlarining xo'jaliklardan o'z vaqtida olib chiqib ketilishini va ularning qayta ishlash korxonalari hamda tayyorlov punktlariga yetkazib berilishini ta'minlaydi.

So'nggi shart, ya'ni mahsulotlarni o'z vaqtida yetkazib berish, yuk yo'qotishlarini, ayniqsa qishloq xo'jalik mahsulotlarining yo'qotilishini kamaytirish bilan uzviy bog'liqdir.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yig'im-terim texnikasidan o'z vaqtida olib ketish hosilni yig'ish sur'atlariga bevosita ta'sir qiladi, bu esa to'plangan mahsulotning hajmi va sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Transport vositalarining samarali ishlashi qishloq xo'jalik yuklarining tashish va keyingi saqlash jarayonida butunligini ta'minlaydi, bu esa tashish sifatiga bog'liq.

Ba'zi turdagi tez buziluvchi qishloq xo'jalik mahsulotlarini tashish xarajatlari ularning yo'qotilishidan keladigan zararga nisbatan ancha past bo'lishi mumkin. Shu sababli, transport ishlarining samaradorligini baholash, eng maqbul transport xizmatlarini tanlash va tashish usullarini belgilashda yuk tashish sifatini hisobga olish muhimdir.

O'tkazilgan tadqiqotlarda transport vositalaridan foydalanish samaradorligini tavsiflovchi quyidagi ko'rsatkichlar tizimi aniqlangan :

- Smena yoki 1 soat ichida tashilgan yuk hajmi. Ushbu ko'rsatkichni qo'llash zarurati har bir transport vositasi tomonidan vaqt birligi ichida bajariladigan tashish ishlarining ortishi transport vositalaridan oqilona foydalanishni belgilashi bilan izohlanadi.

- 1 tonna yukni tashish uchun sarflangan mehnat xarajatlari. Bu ko'rsatkich yuk tashishdagi mehnat unumdorligi darajasini aks ettiradi va ishlatilayotgan transport vositalarining texnologik rivojlanish darajasini tavsiflaydi.

- To'g'ridan-to'g'ri ekspluatatsion xarajatlar yoki tashish tannarxi.

- 1 tonna yukga to'g'ri keladigan kapital qo'yilmalar. Bu ko'rsatkich transport vositasining balans qiymatini uning yillik ishlab chiqarish hajmiga bo'lish orqali aniqlanadi.

- Jami xarajatlar. Bu ko'rsatkich to'g'ridan-to'g'ri ekspluatatsion xarajatlarni hamda muayyan hajmdagi transport ishlarini bajarish uchun zarur bo'lgan asosiy ishlab chiqarish fondlari (kapital qo'yilmalar) miqdorini kompleks ravishda hisobga oladi.

Shunday qilib, qishloq xo'jaligida transport ekspluatatsiya sharoitlari o'ziga xos va boshqa tarmoqlarga qaraganda murakkabroqdir. Shu sababli, transport vositalaridan oqilona foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqishda bu xususiyatlar hisobga olingan.

Khandker, Bakht va Koolwal, Donaldson kabi olimlar asarlarida odatda transport aloqalarining yaxshilanishi ishlab chiqarish resurslari narxlarini pasaytirishi va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini oshirishi mumkinligi ta'kidlanadi. Garchi bu borada ilmiy ishlar ko'p bo'lsa-da, transport aloqalarining qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga ta'sirini aniq va qat'iy isbotlash hanuzgacha qiyin vazifa bo'lib qolmoqda. Muhim empirik muammolardan biri transport infratuzilmasining joylashuvi bilan bog'liq endogenlikdir, chunki bu omil ko'pincha ko'plab siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillar tomonidan belgilanadi. Tadqiqotchilar ularning barchasini kuzatishi qiyin (hatto imkonsiz) bo'lganligi sababli, tushirib qoldirilgan o'zgaruvchilar tufayli yuzaga keladigan chetlanish (omitted variable bias) ta'sirini nazorat qilish muhimdir. Shuni ham ta'kidlash joizki, transportga bo'lgan kirish imkoniyati vaqt o'tishi bilan keskin o'zgarmaydi. Bu holat mavjud adabiyotlarda ko'pincha e'tibordan chetda qolgan, chunki ushbu tadqiqotlarda foyda oluvchilar odatda yaxshilangan yo'llarga yaqinlik asosida ikkilik



(binary) tarzda aniqlanadi. Masalan, ta'mirlangan yo'llar bo'ylab yoki ularga yaqin yashovchi barcha xonadonlar yaxshilangan transport aloqalaridan foyda ko'radi, deb faraz qilinadi. Biroq, bu ikkita sababga ko'ra to'g'ri bo'lmasligi mumkin.

Birinchidan, yo'llar tarmoqni tashkil qiladi. Shuning uchun har doim muqobil yo'nalishlar mavjud. Ikkinchidan, yo'l dasturi doirasida yaxshilangan yo'l qismi odatda odamlarning bir joydan boshqa joyga borish uchun foydalanadigan butun yo'l tarmog'ining faqat kichik bir qismini tashkil etadi. Shu sababli, transport imkoniyatlaridagi umumiy o'zgarish foydalanuvchilar uchun asta-sekin sodir bo'ladi. Aynan shu sababdan transport infratuzilmasining ta'sirini o'lchash uzoq vaqt talab etadi va transport imkoniyatlari uchun katta mablag' sarflanganiga qaramay, bu sohada sezilarli o'zgarishlar uzoq yillar davomida yuz bermagan.

Qishloq xo'jaligi va transport o'rtasidagi bog'liqlikni hisoblashda endogenlik muammosi muhim rol o'ynaydi, chunki transport infratuzilmasi va qishloq xo'jaligi o'sishi o'zaro ta'sir qiladi.

Endogenlik muammosi quyidagilar sabab yuzaga keladi:

Ikkilamchi sabab-oqibat aloqasi - yaxshi transport infratuzilmasi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini oshirishi mumkin. Shu bilan birga, rivojlangan qishloq xo'jaligi hududlari ko'proq yo'l qurilishiga sabab bo'lishi mumkin. Natijada, qaysi omil sabab, qaysi omil natija ekanligini aniq ajratish qiyinlashadi.

O'tkazib yuborilgan o'zgaruvchilar: transport infratuzilmasi va qishloq xo'jaligi rivojlanishiga ta'sir qiluvchi boshqa omillar ham mavjud (masalan, hukumat siyosati, tabiiy resurslar, bozor talab-sharoitlari). Agar bu omillar nazorat qilinmasa, natijalar noto'g'ri talqin qilinishi mumkin.

O'z-o'zini tanlash muammosi - transport infratuzilmasi odatda iqtisodiy jihatdan muhimroq yoki allaqachon rivojlangan hududlarga quriladi. Natijada, yo'l qurilishi va qishloq xo'jaligi o'sishi o'rtasidagi bog'liqlik tasodifiy bo'lmaydi.

Transport aloqasi va boshqa omillarning ta'sirini o'lchash uchun an'anaviy ishlab chiqarish funksiyasi yondashuvi qo'llaniladi (Gyimah-Brempong (1987), Bravo-Ortega va Lederman (2004) hamda Dorosh va boshq., 2012).

Faraz qilaylik, j joylashuvda yashovchi i-xonadon t vaqt momentida turli resurslardan (X) foydalanib, v qiymatdagi ekin yetishtiradi. Shunda quyidagi oddiy ishlab chiqarish funksiyasi ko'rib chiqiladi:

$$\ln v_{ijt} = \beta_0 + \beta_{TR} \ln TR_{jt} + X'_{ijt} \beta_x + Z'_{ijt} \beta_z + c_j + c_t + \epsilon_{ijt}$$

Bu yerda:

i-xonadonning j joylashuvdagi transport aloqasi, bu qishloq xo'jaligi mahsuldorligiga ta'sir qilishi mumkin.

TR-vaqt bo'yicha o'zgaruvchan, ya'ni uning ta'siri vaqt o'tishi bilan farqlanishi mumkin.

X- ishlab chiqarishda foydalaniladigan turli resurslar (masalan, yer, mehnat, texnika va boshqalar).

Z- xonadonlarning o'ziga xos xususiyatlari, bu oilalar o'rtasidagi tafovutlarni hisobga olish uchun kiritiladi.

c_j - joylashuvga xos doimiy ta'sirlar (fixed effects).

c_t - vaqtga bog'liq bo'lgan doimiy ta'sirlar (time-specific fixed effects).

ϵ_{ijt} - o'ziga xos tasodifiy xatolik (idiosyncratic error), bu boshqa o'lchab bo'lmaydigan omillarni ifodalaydi.

Shunday qilib, transport infratuzilmasining vaqt o'tishi bilan o'zgarishini tahlil qilish orqali uning qishloq xo'jaligi mahsuldorligiga ta'siri baholanadi.

Ishlab chiqarish resurslari sifatida besh asosiy omil hisobga olinadi: Mehnat (L), Yer maydoni (H), O'g'it (F), Pestitsid (P), Yollangan ishchi kuchi (N)

Barcha o'zgaruvchilarning logarifmlari olinadi, ya'ni ularning ta'siri foiz o'zgarish shaklida baholanadi.

Aksariyat ilmiy adabiyotlarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy omillari sifatida odatda mehnat, yer, o'g'it va sug'orish ko'rib chiqiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Transport tizimi va qishloq xo'jaligi o'rtasidagi bog'liqlik murakkab va ko'p omilli jarayondir. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, transport infratuzilmasining yaxshilanishi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq, endogenlik muammosi tufayli ushbu ta'sirni aniq o'lchash va sabab-oqibat aloqalarini ajratish qiyin bo'lib qolmoqda. Transport infratuzilmasining joylashuvi va unga bo'lgan kirish imkoniyatlari iqtisodiy va siyosiy omillar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning o'zgarishi uzoq vaqt talab etadi.

Shuningdek, an'anaviy yondashuvlar transport infratuzilmasining ta'sirini baholashda ba'zi cheklavlarga ega. Masalan, foydalanuvchilarni faqat yaxshilangan yo'llarga yaqinlik bo'yicha tasniflash real transport imkoniyatlarini to'liq aks ettirmasligi mumkin. Shuning uchun, transport infratuzilmasi va qishloq xo'jaligi o'sishi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishda yanada chuqurroq empirik va statistik tahlillar zarur.



Takliflar

Empirik tadqiqotlarni kengaytirish – Transport infratuzilmasining qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga ta'sirini o'rganishda zamonaviy iqtisodiy-statistik usullardan, jumladan, instrumental o'zgaruvchilar yondashuvi va tabiiy eksperimentlardan foydalanish zarur.

Mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olish – Transport tizimining ta'siri turli hududlarda farq qilishi mumkin. Shu bois, tahlillar milliy va mintaqaviy darajada olib borilishi, tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar inobatga olinishi lozim.

Samaradorlikni oshirishga qaratilgan investitsiyalar – Transport infratuzilmasiga qaratilgan investitsiyalar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatishi sababli, resurslarni optimal taqsimlash va investitsiya samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratish kerak.

Transport tarmog'ining yaxlit rivojlanishi – Yo'l qurilishi va ta'miri bilan cheklanmay, transport xizmatlari va logistika infratuzilmasini rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, qishloq hududlarida mahsulot yetkazib berish va bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Davlat siyosati va rejalashtirish – Hukumat transport infratuzilmasi bo'yicha uzoq muddatli strategiyalar ishlab chiqishi va ularni qishloq xo'jaligi rivojlanishi bilan uyg'unlashtirishi lozim. Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng qo'llash tavsiya etiladi.

Yuqoridagi tavsiyalar transport infratuzilmasining qishloq xo'jaligi rivojlanishiga ijobiy ta'sirini oshirishga hamda mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bravo-Ortega, and Lederman. 2004. Agricultural productivity and its determinants: Revisiting international experiences. *Estudios de Economia*, Vol. 31(2), pp. 133-163.
2. Chandra, and Thompson. 2000. "Does public infrastructure affect economic activity? Evidence from the rural interstate highway system" *Regional Science and Urban Economics* 30, 457-490.
3. Donaldson, Dave. 2018. Railroads and the Raj: The economic impact of transportation infrastructure. *American Economic Review*, Vol. 108(4-5), pp. 899-934.
4. Dorosh, Wang, You, and Schmidt. 2012. Road connectivity, population, and crop production in Sub-Saharan Africa. *Agricultural Economics*, Vol. 43, pp. 89-103.
5. Khandker, Shahidur, Zaid Bakht, and Gayatri Koolwal. 2009. The poverty impact of rural roads: Evidence from Bangladesh. *Economic Development and Cultural Change*, Vol. 57(4), pp. 685-722.
6. A.K. Igamberdiev /QISHLOQ VA SUV XO'JALIGIDA TRANSPORT / O'quv qo'llanma.–T.: TIQXMMI, 2020-200 bet.
7. Файзуллаев Ж.С.ТРАНСПОРТ ТИЗИМИ ИҚТИСОДИЙ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2021 yil
8. FAO (2022). The State of Food and Agriculture 2022: Leveraging Agricultural Transport for Market Access. Rome: FAO Publications.
9. World Bank (2021). Rural Infrastructure and Agricultural Productivity. Washington, DC: World Bank Group.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>